



SIRDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-aprel






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 633** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **52** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 581** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida Sirdaryo viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi **1 409,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **103,6 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **107,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,9 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1 302,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **103,1 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **144,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,7 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	1 409,5	103,6	107,3	109,9	1 302,2	103,1
Guliston sh.	541,5	104,4	45,3	94,9	496,2	105,3
Shirin sh.	18,2	98,7	0,1	56,1	18,2	99,0
Yangiyer sh.	135,3	102,6	6,8	93,6	128,5	103,1
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	88,5	103,6	28,8	111,6	59,8	100,2
Guliston	75,0	102,2	3,3	137,4	71,8	101,0
Mirzaobod	98,0	106,3	5,7	2,7 m.	92,3	102,4
Oqoltin	30,9	104,2	1,0	99,9	29,9	104,4
Sardoba	52,4	103,7	0,6	89,3	51,7	103,9
Sayxunobod	57,8	100,5	6,5	3,9 m.	51,3	91,9
Sirdaryo	265,4	103,0	7,3	86,7	258,1	103,5
Xovos	46,5	103,5	1,9	4,0 m.	44,6	100,3

2023- yilning yanvar-aprel oylarida 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan viloyatning Guliston shahar (**104,4 %**), Mirzaobod (**106,3 %**) va Oqoltin (**104,2 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-aprel, mlrd.so'm)




So'nggi 6 yillikda chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2019- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2018- yilning mos davriga nisbatan **109,5 %** ni yoki **912,7** mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati
oylar kesimida (foizda)
(2023- yil yanvar –aprel oylari)**



2023- yilning yanvar-aprel oylarida o'sish sur'ati 103,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri **38,4 %** bilan **541,5 mlrd. soʻmni** tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Shirin shahri **1,3 %** bilan **18,2 mlrd. soʻmni** tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1 302,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **103,1** % ni tashkil qildi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,4** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **9,9** % ga o'sdi va **107,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,6** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, *(foizda)*



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (**99,7 %**), Sardoba (**98,8 %**) va Sirdaryo (**97,2 %**) hududlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **7,6 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Boyovut (**32,5 %**), Sayxunobod (**11,2 %**), Guliston sh. (**8,4 %**) hududlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Sirdaryo viloyati	1 568,2	101,5
Guliston sh.	5 605,3	101,7
Shirin sh.	944,3	97,7
Yangiyer sh.	2 884,6	99,3
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	648,2	101,9
Guliston	960,5	99,7
Mirzaobod	1 237,5	103,6
Oqoltin	560,0	102,3
Sardoba	754,4	102,2
Sayxunobod	705,6	98,5
Sirdaryo	1 966,0	101,1
Xovos	461,6	102,0


2023- yilning yanvar-aprel holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 568,2** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **101,5 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (**5 605,3** ming. so'm), Yangiyer shahri (**2 284,6** ming. so'm) va Sirdaryo (**1 966,0** ming. so'm) tuman hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-aprel oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **144,2** mld. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **104,7 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **44,1** mld. so'mni (**75,9 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **100,1** mld so'mni tashkil etdi (**125,8 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mld. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	144,2	104,7	44,1	75,9	100,1	125,8
Guliston sh.	27,2	91,9	27,3	91,9	0,0	0,0
Shirin sh.	-	-	-	-	-	-
Yangiyer sh.	2,7	56,6	2,7	56,6	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	4,7	86,3	4,7	86,3	-	-
Guliston	17,4	98,3	1,3	79,9	16,1	100,2
Mirzaobod	26,4	229,3	-	-	26,4	229,3
Oqoltin	-	-	-	-	-	-
Sardoba	29,1	145,7	0,7	22,5	28,4	168,3
Sayxunobod	17,5	74,8	-	-	17,5	78,8
Sirdaryo	7,5	60,4	7,4	60,3	0,0	0,0
Xovos	11,7	90,9	-	-	11,7	90,9

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-aprel oylarida Viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **44 095,0** mln. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (20 731,2 mln. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mln. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 20 731,2
	Non va non mahsulotlari 5 011,7
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 3 756,1
	Tovuq go‘shti 2 848,3
	Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (yong‘oq, bodom, pista va boshqalar) 3 534,7
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 3 014,9
	Tuxum 1 842,4
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak 24,2
	Ziravorlar 2 053,1
	Tuzlamalar 1 051,6
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 226,8
	Nooziq-ovqat tovarlari 0,0

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023- yilning yanvar-aprel oylarida Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **100 140,2** mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **82 365,9** mln. so'm, qo'y va echkilar – **15 187,8** mln. so'mni, otlar – **2 448,6** mln. so'mni, parrandalar – **139,4** mln. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mln. so'm
 2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	33 909,6
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	13 882,6
 1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	34 573,7
 Qo'ylar	12 012,6
 Otlar	2 447,1
 Echkilar	3 175,2
 Kurka, o'rdak, g'oz	67,1
 Tovuqlar	69,9
 Quyonlar	2,4
 Qushlar	0,0

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **643** tani tashkil etdi.


2023- yilning yanvar-aprel oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,6 %** ni tashkil etib, **36 654,2** mln. so‘mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,8 %** ga ko‘paydi. Bunda savdo aylanmasining **88,5 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar- aprel oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar- aprel oyiga nisbatan, foizda	Yakka tartibdagи tadbirkorlik subyektlar, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar- aprel oyiga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	36 654,2	102,8	32 442,1	102,4	4 212,0	107,0
Guliston sh.	17 932,0	106,9	16 736,9	106,8	1 195,0	109,0
Shirin sh.	697,0	98,2	621,6	97,3	75,4	106,0
Yangiyer sh.	5 327,8	105,1	4 670,6	104,8	657,2	107,0
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	1 106,6	82,0	837,0	76,5	269,6	105,0
Guliston	2 613,2	98,6	2 335,0	97,3	278,2	112,0
Mirzaobod	2 136,8	101,2	2 005,8	101,0	131,1	104,0
Oqoltin	927,4	101,9	737,4	101,7	189,9	103,0
Sardoba	703,7	101,2	514,2	100,5	189,5	103,0
Sayxunobod	1 183,7	102,2	986,2	102,1	197,5	103,0
Sirdaryo	3 355,4	97,5	2 414,1	94,8	941,2	105,0
Xovos	670,6	86,4	583,3	84,1	87,4	106,0

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- may holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **90 796,0** mln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **14,8 %** ga kamaydi. Shuningdek, kichik biznes korxonalar savdo hajmi **87 725,0** mln. so'm (o'sish sur'ati – **84,6 %**), xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **3 071,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **108,3 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mln. so'm	Ulushi, foizda
Sirdaryo viloyati	90 796,0	100,0
Guliston sh.	28 261,9	31,1
Shirin sh.	234,2	0,3
Yangiyer sh.	1 735,4	1,9
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	754,9	0,8
Guliston	157,1	0,2
Mirzaobod	6 272,0	6,9
Oqoltin	27 232,7	30,0
Sardoba	972,9	1,1
Sayxunobod	532,5	0,6
Sirdaryo	24 541,4	27,0
Xovos	101,0	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (**28 261,9** mln. so'm), Oqoltin (**27 232,7** mln. so'm) va Sirdaryo (**24 541,4** mln. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **734,1** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,6 %** ga ko‘paydi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **600,2** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **90,4 %**ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **81,7 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBEKLARI

2023- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **1 222** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **24** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 198** tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari eng yirik korxonalar Boyovut (**5,9 b.**), Guliston (**2,0 b.**) hamda Sirdaryo (**185,1 %**) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	734,1	102,6	134,0	2,5 m.	600,2	90,4
Guliston sh.	218,6	90,2	9,7	106,3	208,9	89,6
Shirin sh.	2,8	88,8	-	-	2,8	88,8
Yangiyer sh.	40,8	89,6	0,3	93,9	40,6	89,5
Boyovut	99,2	2,0 m.	66,4	5,9 m.	32,8	88,3
Guliston	18,8	120,1	8,7	2,0 m.	10,1	88,7
Mirzaobod	28,5	101,4	8,0	177,3	20,4	86,8
Oqoltin	10,2	182,7	8,0	183,6	2,2	179,5
Sardoba	28,5	104,4	8,5	182,3	20,0	88,3
Sayxunobod	62,0	96,8	8,2	176,7	53,8	90,5
Sirdaryo	191,7	94,7	8,5	185,1	183,2	92,6
Xovos	33,1	98,9	7,7	167,5	25,4	87,9



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistika bo'limi**